

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

8
2023



Tosh o'rmoni
(Navoiy viloyati)

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti

- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



74-91 xalqaro daraja

ISSN: 2992-8982



Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Qo'ng'irotboy Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinnbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Elektron nashr. 426 sahifa, 30-avgust, 2023-yil.

Muharrir:

Qurbanov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Rae Kvon Chung, Janubiy Korea, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyatni rahbari

Toshkulov Abduqodir Hamidovich, i.f.d., prof., O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlar, fan, ta'lif, sog'liqni saqlash, madaniyat va sport masalalari bo'yicha maslahatchisi o'rinnbosari

Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinnbosari

Sharipov Qo'ng'irotboy Avazimbetovich, t.f.d., prof., TDIU rektori

Oblamuradov Narzulla Naimovich, i.f.n., dots., O'zR Tabiat resurslari vaziri o'rinnbosari

Djumaniyazov Maqsud Allanazarovich, Qoraqalpog'iston Respublikasi Tabiat resurslari qo'mitasi raisi

Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlis qonunchilik palatasi deputati

Utayev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinnbosari

Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokuraturasi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bo'limi boshlig'i

Eshov Mansur Po'latovich, i.f.d., prof., TDIU Akademik faoliyat bo'yicha prorektori

Xudoqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU YoMMMB birinchi prorektori

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlari va innovatsiyalar bo'yicha prorektori

Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., "O'IRIAM" ilmiy tadqiqot markazi direktori – prorektor

Yuldashev Maqsud Abdullayevich, p.f.d., prof., TDIU Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektori

Karimov Norboy G'aniyevich, i.f.d., prof., TDIU huzuridagi PKQTMO tarmoq markazi direktori

Hakimov Nazar Hakimovich, f.f.d. TDIU profesor

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TMI professori

Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU Marketing kafedrasи professori

Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori

Aliyev Bekdavlat Aliyevich, f.f.d., TDIU professori

Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., prof., Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti

Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d., "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinnbosari

Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d., Toshkent arxitektura-qurilish universiteti katta o'qituvchisi

Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktaranti

Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi

Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'onan davlat universiteti dotsenti

Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li, TDIU Ilmiy tadqiqotlar va

innovatsiyalar departamenti rahbari

Babayeva Zuhra Yuldashevna, TDIU huzuridagi Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq Markazi xorijiy hamkorlik bo'yicha mutaxassis

Ekspertlar kengashi:

Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d., TDIU dotsenti

Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Imomqulov To'lqin Burxonovich, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,

O'zR Tabiat resurslari vazirligi,

O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

JSTga a'zolik Yangi O'zbekistonni jahon iqtisodiyotiga olamshumul integratsiyalashtiradi	6
Muxiddin Kalonov , i. f. d., professor	
O'zbekistonda ipakchilik sanoatining rivojlanish strategiyalari samarasi.....	11
Jumayev Olimjon Sadulloyevich , tadqiqotchi	
"Yashil" iqtisodiyot va uni shakllantirish masalalari.....	18
Yokubjanov Doniyor Islom o'g'li , tayanch doktorant	
Suv ta'minot korxonalarining biznes jarayonlari bo'yicha	
asosiy samaradorlik ko'rsatkichlari (KPI)ni baholash.....	24
Saidakbarov Xusniddin Abdisalomovich , PhD	
O'zbekiston fond bozorida investorlarning pul mablag'larini	
jalb qilish mexanizmlaridan foydalanish.....	27
Karimov Akramjon Ikromjon o'g'li , PhD	
Ishchi kuchi bozorining amal qilish metodologiyasi	34
Mamaraximov Bekzod Erkinovich , i. f. n., dotsent	
Yashil turizmni rivojlanish va takomillashtirish istiqbollari.....	39
Normurodova Zebo Eshmaxmatovna , kafedra o'qituvchisi	
Suv resurslaridan foydalanishning samaradorligini baholashga yondashuvlar.....	44
Axmedov Sayfullo Normatovich , t. f. n., mustaqil tadqiqotchi	
Samarqand viloyatida xizmat ko'rsatish sohasining holati va	
innovatsion rivojlanish tendensiyalari tahlili.....	50
Berdiyev Anvar Abduraxmonovich , tayanch doktorant	
Mamlakatimizda markaziy bank monetar siyosatini amalga oshirishning amaliy holati	56
G'aybullayeva Zilola Raxmatullo qizi , mustaqil tadqiqotchi	
Tijorat banklari kapitalidagi mavjud davlat ulushlarini kamaytirish	61
Olimjanova Nigora Alisherovna , mustaqil izlanuvchi	
Infratuzilmaviy investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda islam moliya bozorining roli.....	65
Saydirasulov Laziz Alimovich , doktorant	
Balansning tarkibiy tuzilishi va unga ta'sir etuvchi omillar	71
Tulayev Mirzakul Salamovich , kafedra dotsenti; Axmedov Akbarali Sultonmurodovich , i. f. n (PhD)	
Интеграция современных информационных систем в аудит бюджетных организаций	78
Урдабаев Жарылқап Ермекбаевич , независимый исследователь	
Формирование и использование ресурсного потенциала промышленных предприятий.....	83
Махмудов Носир Махмудович , д. э. н., профессор; Фозилова Фирангиза Комиловна , докторант	
Qishloq xo'jaligi ekinlarining yovvoyi ajdodlarini genofond sifatida asrash va ulardan samarali	
foydalanish zarurati.....	89
Sherali Xolliyev , kafedra o'qituvchisi	
Turizmnii rivojlantirishda axborot texnologiyalarning o'rni	94
Yuldasheva Dilnoza Ulugbekovna , mustaqil tadqiqotchi	
Sanoat klasterlarini tashkil etish va boshqarishning o'ziga xos jihatlari.....	99
Xakimov Ziyodulla Axmadovich , dotsent; Axmadova Rayxona Jasurbek qizi , tadqiqotchi	
"Universitet-ishlab chiqarish" integratsiyasi sharoitida oliy o'quv yurtlarining	
innovatsion rivojlanishini boshqarishning nazariy qoidalari.....	103
Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxo'ja qizi , iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent	
Farmatsevtika sanoati raqobatbardoshligini oshirishda farmatsevtikaga ixtisoslashgan	
erkin iqtisodiy zonalardan foydalanishning xorij tajribasi.....	108
Abdiyeva Flora Botir qizi , tayanch doktorant	
Hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga ilmiy yondashuvlar	114
Abdullahayev Farxod Ozodovich , mustaqil tadqiqotchi	
Budget-soliq va pul-kredit siyosatini muvofiqlashtirishda fiskal va	
monetar qoidalardan foydalanishning nazariy jihatlari	119
Hakimjon Hakimov , tadqiqotchi	
Analyzing the Impact of External Debt on The Financial Security of the Country	125
Sanakulova Barnogul Rizakulovna , Doctor of Economic Science, Professor;	
Jamolov Mirzabek Mirjalil ugli , Senior researcher	



Sanoat korxonalarining iqtisodiy o'sishi va barqaror rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari.....	129
Avloqulova Sadoqat Sobirjon qizi	
Digital Advertising Oasis: Qatar's E-Marketing Revolution	133
Mirziyo Sodikov Odiljon o'g'li	
Tikuv-trikotaj korxonalari faoliyatida marketing tadqiqotlaridan foydalanishning SWOT tahlili	138
Ro'zmamatov Abbas Tolibjon o'g'li , magistrant	
Xorijiy investitsiyalar oqimiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash uchun ekonometrik regression model tuzish.....	144
Saydullayev Azamat Jo'raqul o'g'li , tayanch doktorant	
Eksport – mamlakat iqtisodiy o'sishiga ta'sir etuvchi asosiy omil sifatida	151
Sharifi Ahmad Sakhrob , mustaqil izlanuvchi	
Роль цифровизации туристической отрасли в повышении её экспортного потенциала страны	156
Суюнова Фотима Баходир кизи , базовый докторант	
Surxondaryo viloyati iqtisodiyotiga kiritilgan xorijiy investitsiyalar prognози	161
Xatamov Nurbek Ochildeyevich , erkin tadqiqotchi	
Inson kapitalini oshirishda xodimlarni o'qitish va rivojlantirishning o'rni.....	169
G'aniyeva Dilnoza Baxriddin qizi , doktorant	
Совершенствование порядка исчисления и уплаты акцизного налога в Узбекистане	174
Жуманиязова Феруза , PhD, доцент	
Yevropa tiklanish va taraqqiyot bankidan investitsiya jalg qilish imkoniyatlari.....	179
Mamatov Bahromjon Shavkatovich , dotsenti, PhD	
Davlat-xususiy sherikligini rivojlantirishning xorijiy tajribalari.....	184
Mamayusupova Dilovarxon Begmatovna , mustaqil izlanuvchi, i. f. f. d. (RhD)	
Banklar moliyaviy barqarorligini ta'minlashda makroprudensial siyosatning o'rni.....	190
Nilufar Sharipova , PhD	
Dunyoda qorako'l teriga bo'lgan talabning pasayishi: sabab va oqibatlar	197
Nurillayev Jamoliddin Yarashevich , doktorant, i. f. n., dotsent	
Mehnat resurslarini faoliyatini tashkil etishning mezonlari va ko'rsatkichlari.....	201
O'roqov Mamurali Odil o'g'li , tayansh doktarant	
Biznes loyihalarini moliyalashtirishning xorij tajribasi	208
Razzaqov Jasur Hamraboievich , dotsent, PhD	
Сравнительный анализ методов оценки финансирования инновационных разработок предприятие.....	212
Рузиева Дилноза Абдусаматовна , независимый исследователь	
IPOning muvaffaqiyatlilik darajasini aniqlash metodikasini takomillashtirish yo'llari	216
Saydullayev Shaxzod Sherzodovich , PhD	
Источники финансирования стартап-проектов и способы их привлечения	222
Хажиев Бахтиёр Душабоевич , dotsent, iqtisodiyot fanlari nomzodi	
Tashqi iqtisodiy munosabatlar sharoitida tashqi savdo va bojxona mexanizmlarini tartibga solish masalalari	227
Adizov Sardor Rashidovich , mustaqil izlanuvchi	
Shaxsning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash strategiyasini ishlab chiqish	231
Mamatov Sardor Axmatjonovich , mustaqil tadqiqotchi	
Malayziya iqtisodiyotida Islom kapital bozori ahamiyatining tahlili.....	238
Abrorov Sirojiddin Zuxriddin o'g'li , PhD	
Анализ современного состояния предприятий топливно-энергетического комплекса Узбекистана	243
Мирзахалилова Азизахон Алишеровна , докторант	
Moliyaviy savodxonlik orqali fond bozori savdolarida institutslonal investorlar faolligini oshirish	249
Sultanov Maxmud Axmedovich , dotsent, PhD	
Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini tashqi bozorlarga yetkazib berishda tijorat standartlarining o'rni	254
Xojiyev Elshod Yoqub o'g'li , PhD; Fayzullayev Shuhrat Sherali o'g'li , tayanch doktorant	
Особенности использования системно-процессного менеджмента в развитии зеленой экономики	259
Отакулов Махамаджон Каримович , PhD, и.о. доцент	
Milliy turizm tarmog'ida raqobat ustunliklarini aniqlashning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati	264
Xalilov Sirojiddin Sherali o'g'li , PhD	
Sut mahsulotlari ishlab chiqarish korxonalarida "yashil marketing" strategiyalari.....	268
Eshmatov Sanjar Ashirqulovich , mustaqil tadqiqotchi, i.f.f.d.(PhD)	



O'zbekiston Respublikasida kredit mexanizmini takomillashtirish imkoniyatlari.....	272
Gadoyev So'hrob Jumakulovich , PhD, dotsent	
Vliyanie investitsionnoj politiki na innovacionnuyu deyatel'nost' v Respublike Koreya.....	277
Алимова София Розумбаевна , nezavisimyyi issledovatel'	
Hududlarda oliv ta'lim va mehnat bozori integratsiyasi yo'nalishlarini takomillashtirish.....	282
Haqqulov Fazliddin Faxriddinovich , tayanch doktorant	
Bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiy potensialni rivojlantirish.....	290
N. N. Ismatullayeva , tayanch doktarant	
Mahalliy byudjet daromadlari shakllanishi va muammolarining amaliy holati va tahlili.....	293
Ollokulova Feruza Mansurovna , PhD	
Temir yo'l transportidan samarali foydalanishning ekonometrik tahlili.....	298
Shakarova Dilfuza Ruzimuratovna , tayanch doktorant	
Formirovaniye kreditnogo portfela sovremenennogo kommercheskogo banka.....	304
Жураева Нодира Фузулий кизи , assistent kafedry	
Logistika kompaniyalarida yuklarni sug'ortalashni takomillashtirish yo'llari	310
G. Abduvosidova , kafedra o'qituvchisi	
Tumanlar va tadbirkorlikning rivojlanish darajalarini baholash uslublari.....	315
Nazarov Shohbek Isroilovich , magistrant	
Shaxsning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash strategiyasini ishlab chiqish.....	320
Mamatov Axmetjon Atajanovich , professor; Allaberganova Zakir Gayibovich , dotsent	
Moliya tizimini barqarorlashtirishda mahalliy budgetlarning imkoniyatlarini oshirish masalalari.....	327
Ollokulova Feruza Mansurovna , PhD; Eshonqulov Asliddin Mammatmurod o'g'li , magistrant	
Byudjetdan tashqari mablag'lari samaradorligini oshirishda davlat xaridlarining roli	330
Norov Akbar Ruzimamatovich	
Fond bozorini rivojlantirishning mamlakat iqtisodiy o'sish jarayonlari bilan bog'liqligi	335
Xoliqov Ulug'bek Rustamovich , t.f.n.	
Sun'iy intellektning tijorat banklari samaradorligiga ta'siri: xorijiy tajriba	341
N.N.Ro'ziyev	
O'zbekistonda turizmni rivojlantirishda investitsion loyihalarni jalg qilishning iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish.....	350
Astanov Sherzod Rustamovich , mustaqil tadqiqotchi	
Assessing the Impacts of Modern Models for Increasing Textile Product Exports through Green Strategies.....	356
Nosirova Charos	
MDH mamlakatlarida islom moliyasini rivojlanish istiqbollari.....	364
Irgasheva Gulbahor Sodiqovna , tayanch doktorant	
Qayta ishlash sanoati korxonalarini iqtisodiy samaradorligini oshirishning zamonaviy yo'llari	369
Abduxamidova Gulxayo , tadqiqotchi	
Mintaqa iqtisodiyotiga kiritilayotgan xorijiy investitsiyalar statistik tahlili	374
Xatamov Nurbek Ochildeyevich , erkin tadqiqotchi	
Mezhduanal'nyi opyt razvitiya regionov putem privlecheniya investitsii cheres rynek kapitala.....	380
Dadahanova Saida Makhhammadxon kizi , doktorant	
Iskusstvennyi intellekt kak instrument upravleniya chelovecheskimi resursami	386
Xайдарова Малика Шакирджановна , prepodavatel' kafedry	
Surxondaryo viloyatida kichik tadbirkorlik rivojlanishining iqtisodiy-statistik tahlili	396
S.T.Toshaliyeva , PhD	
Jahon Savdo Tashkiloti faoliyatasi va unga a'zo bo'lish xususida.....	403
Ruzibayev Jahongir Nodirovich , tadqiqotchi	
Xufiyona iqtisodiyot ulushining oshishi O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy xavfsizligiga bevosita tahdid sifatida.....	407
Nabiiev Feruz Nurmurodovich , tadqiqotchi	
Anoerob qayta ishlash jarayonini elektr impulsli ishlov berish	412
Imomova Nodira Shavkatovna tadqiqotchi, Sultonov Mansur Qilichevich PhD	
Milliy transport infratuzilmasini takomillashtirish.....	416
Xashimova Naima Abitovna , i.f.n., professor; Ergashev Shoxrux Vosiljon o'g'li assistent	
Korxonalar faoliyatida internet – marketing texnologiyalarini rivojlantirishning nazariy asoslar.....	421
M.A.Saparova , talaba	



MAMLAKATIMIZDA MARKAZIY BANK MONETAR SIYOSATINI AMALGA OSHIRISHNING AMALIY HOLATI

**G'aybullayeva Zilola Raxmatullo qizi
Mustaqil tadqiqotchi**

Annotatsiya: Bugungi kunda mamlakatimiz Markaziy bankining maqsad va vazifalari, institutsional tuzilishi tubdan qayta ko'rib chiqildi. Mamlakatimizning iqtisodiyotida amalga oshirilayotgan tub islohotlar moliyaviy siyosatni, shu bilan bir qatorda monetar va fiskal siyosatni iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishdagi ahamiyatini oshirmoqda. Chunki, fiskal siyosat davlat iqtisodiyotini tartibga solishning asosiy vositalaridan biri sanaladi, hamda makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga, tadbirkorlik faoliyatini har tomonlama qo'llab quvvatlashga va mamlakat aholisining turmush darajasiga faol ta'sir etadi.

Kalit so'zlar: Pul-kredit siyosati, monetar siyosat, monetar siyosat instrumentlari, pul-kredit siyosati konsepsiylari, infliyatsiya, depozit bazasi, davlat budjeti, qayta moliyalash stavkasi, ochiq bozor siyosati, majburiy zahira siyosati

Аннотация: Сегодня коренным образом пересмотрены цели и задачи, институциональная структура Центрального банка нашей страны. Реализуемые в экономике нашей страны фундаментальные реформы повышают значение финансовой политики, а также денежно-кредитной и фискальной политики в устойчивом развитии экономики. Потому что фискальная политика считается одним из основных средств регулирования экономики государства и активно влияет на обеспечение макроэкономической стабильности, всестороннюю поддержку предпринимательской деятельности, уровень жизни населения страны.

Ключевые слова: Денежно-кредитная политика, инфляция, депозитная база, государственный бюджет, ставка рефинансирования, политика открытого рынка, политика обязательных резервов

Abstract: Today, the goals and tasks, institutional structure of the Central Bank of our country have been fundamentally revised. The fundamental reforms implemented in the economy of our country increase the importance of financial policy, as well as monetary and fiscal policy, in the sustainable development of the economy. Because the fiscal policy is considered one of the main means of regulating the state economy, and it actively affects the provision of macroeconomic stability, comprehensive support of business activities, and the standard of living of the country's population.

Key words: Monetary policy, inflation, deposit base, government budget, refinancing rate, open market policy, reserve requirement policy

KIRISH

Mamlakatimiz iqtisodiyoti rivojlanishining yangi bosqichida amalga oshirilayotgan tarkibiy islohotlar doirasida O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining maqsad va vazifalari, institutsional tuzilishi tubdan qayta ko'rib chiqildi. Pul-kredit siyosati mantiqan yangi tamoyillar asosida yuritiladigan bo'ldi. Xususan, mamlakatda ichki narxlar barqarorligini ta'minlash vazifasi Markaziy bank faoliyatining ustuvor maqsadi sifatida belgilandi¹.

Budget xarajatlarining oshishi yoki kamayishi tashqi savdo hajmiga mamlakatdagi yalpi talabning o'sishi yoki qisqarishi orqali ta'sir qiladi. Xususan, budget xarajatlarining (transfertlar bilan birga) oshishi yalpi talabni rag'batlantiradi. Yalpi talabning o'sishi, o'z navbatida, import tovarlariga bo'lgan talab hajmida ham o'sishga olib keladi. O'zbekistonda So'nggi yillarda budget xarajatlarning muntazam oshib borayotganligi kuzatilmogda. Aytaylik, YalM daromad sifatida qaralsa, uning tarkibida davlat xarajatlarining hissasi yildan-yilga ortib bormoqda.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasining iqtisodiyotida amalga oshirilayotgan tub islohotlar moliyaviy siyosatni, shu bilan bir qatorda fiskal siyosatni iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishdagi ahamiyatini oshirmoqda². Chunki, fiskal siyosat davlat iqtisodiyotini tartibga solishning asosiy vositalaridan biri sanaladi, hamda makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga, tadbirkorlik faoliyatini har tomonlama qo'llab quvvatlashga va mamlakat aholisining turmush darjasiga faol ta'sir etadi.

1 http://www.cbu.uz. (O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki sayti).

2 D. Ch. Murodova "LOGISTIKA VA IQTISODIYOT" ilmiy elektron jurnali 2022 y 2-son 318–323



ADABIYOTLAR TAHLILI

Markaziy bankning monetar siyosatini takomillashtirish va uning makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashdagi rolini oshirish masalalarining nazariy asoslari xorijilik B. Bernanke, M. Malkina, J. Keyns, S. Moiseyev, M. Fridmen, Vinogradov va M. Doroshenko, R. Miller va D. Van-Xuz, N. Menkyu³ kabi iqtisodchi olimlar hamda fiskal siyosatning iqtisodiy mohiyati hamda uni amalga oshirishning nazariy va amaliy asoslari xorijilik iqtisodchi olimlar jumladan, R. Dornbush, R. Shmalenz, S. Fisher, D. Keys, D. Rikardo, A. Xansen, S. Xarris, S. Merzlyakov, I. A. Belova⁴ kabi xorijilik olimlar tomonidan tadqiq etilgan va muhim ilmiy-amaliy xulosalar shakllantirilgan.

M. Fridmen monetarizm pul-kredit konsepsiyanini yaratdi va ushbu konsepsiya pul-kredit siyosatni ishlab chiqish va amalga oshirishning nazariy-uslubiy asosini tashkil etmoqda⁵. "Arzon pullar" siyosati birinchi bo'lib J. M. Keys tomonidan taklif etilgan. Bunda, Markaziy bankning hisob stavkasini pasaytirish yo'li bilan tijorat banklari kreditlarining foiz stavkalarini pasaytirishga erishishni taklif qilgan⁶.

O'tkazilgan tadqiqot metodologiyasi: Jahan miqyosidagi murakkab jarayonlarni va mamlakatimiz bosib o'tgan taraqqiyot natijalarini chuqur tahlil qilgan holda keyingi yillarda "Inson qadri uchun" tamoyili asosida xalqimizning farovonligini yanada oshirish, iqtisodiyot tarmoqlarini transformatsiya qilish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish, inson huquqlari va manfaatlarini so'zsiz ta'minlash hamda faol fuqarolik jamiyatini shakllantirishga qaratilgan islohotlarning ustuvor yo'nalishlarini belgilash maqsadida 2022-yil 28-yanvarda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-60-son "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" Farmoni qabul qilindi. Unda "2022-yilda yillik inflyatsiya darajasini 9 foizgacha va 2023-yilda 5 foiz hamda fiskal taqchillikni 3 foizgacha pasaytirish choralar ko'rilib, keyinchalik inflyatsiya va davlat budjeti taqchilligi ushbu ko'rsatkichdan oshmasligi ta'minlab borish, inflyatsiyaning monetar omillarini pasaytirish hisobiga doimiy inflyatsion maqsadga (target) erishish bo'yicha choralar ko'rish" kabi vazifalar yuklatilgan. Xususan, qat'iy pul-kredit sharoitlarini saqlab qolish, shu jumladan, iqtisodiyotga kredit qo'yilmalari o'sish sur'atini (16–18 foiz) yalpi ichki mahsulot nominal hajmi o'sish sur'atlari bilan mutanosib bo'lishini; pul-bozoridagi operatsiyalar bo'yicha 2–3 foizlik real ijobiy foiz stavkalari shakllanishini ta'minlash; Markaziy bankning pul-kredit instrumentlarining inflyatsiyaga ta'sirini kuchaytirish; iqtisodiyotda inflyatsion kutilmalarni pasaytirishga qaratilgan kommunikatsiya siyosatini takomillashtirish belgilab berilgan⁷.

Markaziy bank asosiy stavkasi – inflyatsion targetlash rejimi doirasida pul-kredit siyosatini yuritishning asosiy instrumenti bo'lib, Markaziy bankning tijorat banklari bilan amalga oshiradigan pul-kredit operatsiyalari bo'yicha mo'ljal foiz stavkasi hisoblanadi. Ushbu stavkani o'zgartirish orqali Markaziy bank iqtisodiyotda narxlar barqarorligini ta'minlash uchun zarur bo'lgan pul-kredit sharoitlarini belgilab boradi.

Markaziy bankning tijorat banklari bilan likvidlikni taqdim etish va jalb etish bo'yicha asosiy operatsiyalari (muddati 2 haftagacha bo'lgan depozit, REPO va SVOP auksionlari) asosiy stavka doirasida amalga oshiriladi va banklararo pul bozoridagi operatsiyalarga ta'siri orqali bank xizmatlari (depozitlar va kreditlar) bo'yicha foiz stavkalarining belgilanishida muhim omillardan hisoblanadi.

Yillik inflyatsiya darajasi mart va aprel oylarida ham pasayishda davom etdi hamda mos ravishda 11,7 va 11,0 foizga teng bo'ldi. Ushbu pasayishda mavsumiy omillar va o'tgan yildagi yuqori baza effekti ham muhim ahamiyat kasb etdi.

Inflyatsiyaning uzoq muddatli va barqaror omillarini ifoda etuvchi bazaviy inflyatsiyada ham-mart oyida sezilarli pasayish dinamikasi kuzatilib, yillik 12,9 foizgacha sekinlashdi (2022-yil dekabr oyida 13,8 foiz). Bunda, bazaviy inflyatsiyaning umumiyligi inflyatsiyaga hissasi o'tgan yilning oktyabr oyidan buyon birinchi-marta 10 foiz banddan kamroqni tashkil etdi.

Pul bozorida nisbatan qat'iy pul-kredit sharoitlari saqlanib qolinmoqda. Yanvar-aprel oylarida UZONIA indeksi to'liq foiz koridori doirasida, asosiy stavka pasaytirishidan so'ng esa 13 foiz atrofida shakllandi.

3 Малкина М. Ю. Инфляционные процессы и денежно-кредитное регулирование в России и зарубежом. Учебное пособие. – М.: ИНФРА-М, 2012. – С. 254. Моисеев С. Р. Денежно-кредитная политика: теория и практика. Учебное пособие. – М.: Московская финансово-промышленная академия. 2011. – С. 21. Виноградов Д. В., Дорошенко М. Е. Финансово-денежная экономика. Учебное пособие. – М.: Изд. дом. ГУ ВШЭ, 2009. – С. 360. Миллер Р. Л., Ван-Хуз Д. Д. Современные деньги и банковское дело. Пер. с англ. – М.: ИНФРА-М, 2000. – С. 428. Мэнкью Н. Г. Принципы макроэкономики. 4-ое изд. Пер. с англ. – СПб.: Питер, 2009. – С. 297.

4 Фишер С., Дорнбуш Р., Шмалензи Р. Экономика. – М.: Финансы и статистика, 1993; Кейнс, Дж. М. Общая теория занятости, процента и денег: избранные произведения/пер. с англ. Дж. М. Кейнс. - М.: Экономика, 1983. -С. 118; Рикардо Д. Сочинения т. И. "Начало политической экономики и налогового обложения". Пер. с англ. – М.: Госполитиздат, с. 360; Классики кейнсианства (Р. Харрод, Э. Хансен), В 2-х. т. М.: Экономика, 1997г.; Мерзляков С. А. "Стратегическое взаимодействие фискальной и монетарной политики в экспортноориентированной экономике". Деньги и Кредит, 2010. № 2. С. 52–63; Белова И. А. "Типы фискального политики государства" Вестник Челябинского государственного университета. 2010. № 6 (187). Экономика. Вып. 26. С. 69–75.

5 Фридмен М. Основы монетаризма. Пер. с англ. – М.: ТЕИС, 2002. – С. 70 – 72.

6 Дж. М. Кейнс. - М.: Экономика, 1983. -С. 118; Рикардо Д. Сочинения т. И. "Начало политической экономики и налогового обложения". Пер. с англ. – М.: Госполитиздат, с. 360

7 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-soni Farmoni. 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida//Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29. 01. 2022-y., 06/22/60/0082-son.

1-jadval: O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining asosiy stavkasi⁸

Amal qilish muddati	Asosiy stavka, foizda
1	2
17. 03. 2023-y. – ...	14
22.07.2022-y. – 16. 02. 2023-y.	15
10. 06. 2022-y. – 21.07.2022-y.	16
18. 03. 2022-y. – 09. 06. 2022-y.	17
11. 09. 2020-y. – 17. 03. 2022-y.	14
15. 04. 2020-y. – 10. 09. 2020-y.	15
25. 09. 2018-y. – 14. 04. 2020-y.	16
28. 06. 2017-y. – 24. 09. 2018-y.	14
01. 01. 2015-y. – 27. 06. 2017-y.	9
01. 01. 2014-y. – 31. 12. 2014-y.	10
01. 01. 2011-y. – 31. 12. 2013-y.	12
15.07.2006-y. – 31. 12. 2010-y.	14
21. 12. 2004-y. – 14.07.2006-y.	16
05.07.2004-y. – 20. 12. 2004-y.	18
10. 09. 2003-y. – 04.07.2004-y.	20
16.07.2003-y. – 09. 09. 2003-y.	24
01. 01. 2002-y. – 15.07.2003-y.	30
01.07.2000-y. – 31. 12. 2001-y.	24

Tijorat banklari depozit bazasining o'sish sur'atlarida jadallahish kuzatilmoqda. Aprel oyi yakunlari bo'yicha milliy valyutadagi muddatli depozitlar qoldig'i o'tgan yilning mos davriga nisbatan 1,5 barobarga oshdi.

Pul-kredit operatsiyalari bank tizimi umumiy likvidligini tartibga solish orqali qisqa muddatli foiz stavkalarini boshqarishga yo'naltirilgan. Markaziy bank tomonidan ushbu operatsiyalar foiz koridori mexanizmi asosida amalga oshiriladi va pul bozori foiz stavkalarining asosiy stavkaga nisbatan ±2 foizlik koridorda shakllanishini ta'minlaydi.

8 Markaziy bankning hisobot ma'lumotlari asosida tuzildi

2-jadval: Markaziy bankning operatsion mexanizmi⁹

Maqsadi	Instrument	Shartlari	Foiz stavkasi	Vazifasi
Likvidlikni taqdim etish	REPO auksionlari	7 kunlik (har dushanba) (11:00 – 11:30)	Asosiy stavka	Bank tizimi likvidligidagi vaqtinchalik taqchillikni qoplash
	SVOP auksionlari	7 kunlik (har dushanba) (11:30 – 12:00)		
	Overnayt REPO operatsiyalari	1 kunlik (10:00 – 16:00)	Asosiy stavka + 2%	Bank tizimi likvidligidagi kunlik taqchillikni qoplash
	Overnayt SVOP operatsiyalari			
Likvidlikni jalb etish	Overnayt depozit operatsiyalari	1 kunlik (10:00 – 16:00)	Asosiy stavka - 2%	Bank tizimi likvidligidagi kunlik ortiqchalikni jalb etish
	Depozit auksionlari	7 kunlik (har payshanba) (11:00 – 11:30)	Asosiy stavka	Bank tizimi likvidligidagi vaqtinchalik ortiqchalikni jalb etish
	Markaziy bank obligatsiyalari	12 oygacha (grafikka asosan) (11:00 – 11:30)	Asosiy stavka + 2% (yuqori chegara)	Bank tizimi likvidligidagi tarkibiy ortiqchalikni jalb etish

Likvidlikni taqdim etish operatsiyalariga REPO auksioni, valyutaviy SVOP auksioni, Overnayt REPO va Overnayt valyutaviy SVOP operatsiyalari kiradi. Likvidlikni jalb etish operatsiyalariga esa Markaziy bank obligatsiyalari, depozit auksionlari hamda overnayt depozitlari kiradi.

Oxirgi yillarda inflyatsiya bosqichma-bosqich pasaydi va Markaziy bank inflyatsion kutilmalarga o'z ta'sirini ko'rsata oldi. 2017-yil sentyabr oyidagi 50 foizli devalvatsiya oqibatida inflyatsiyaning vaqtinchalik oshishidan so'ng pul-kredit sharoitlarini izchil qat'iyashtirish natijasida inflyatsiya pasayish tendensiyasiga ega bo'ldi. Ammo, inflyatsiya hali ham nisbatan yuqori darajada bo'lib, almashuv kursining doimiy qadrsizlanishi, tartibga solinadigan narxlarning yanada erkinlashtirilishi va oshirilishi, So'nggi yillarda esa global tendensiyalarning salbiy ta'sirlari, jumladan, yetkazib berish zanjiridagi muammolar va xom ashyo tovarlari narxlарining oshishi kabi omillar ta'siridagi inertsiyani ko'rsatmoqda.

3-jadval: O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari tomonidan milliy va xorijiy valyutada berilgan kreditlarning o'rtacha yillik foiz stavkasi, foizda^[10]

Ko'rsatkichlar	2017	2018	2019	2020	2021
Milliy valyutadagi kreditlarning o'rtacha yillik foiz stavkasi	16,2	21,1	23,7	22,3	20,8
Chet el valyutasidagi kreditlarning o'rtacha yillik foiz stavkasi	5,8	5,8	7,1	6,9	6,7

3-jadvalda keltirilgan ma'lumotlardan yaqqol ko'rindaniki, O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari tomonidan milliy valyutada berilgan kreditlarning o'rtacha yillik foiz stavkasi 2017–2020-yillarda oshish tendensiyasiga ega bo'lgan. Biroq ushbu foiz stavkalarining darajasi 2019–2021-yillarda pasayish tendensiyasiga ega bo'lgan. Bu esa mazkur davrda inflyatsiya darajasini va Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasini pasayganligi bilan

⁹ Markaziy bankning hisobot ma'lumotlari asosida tuzildi



izohlanadi. Respublikamiz tijorat banklari tomonidan chet el valyutasida berilgan kreditlarning o'rtacha yillik foiz stavkasi 2019–2021-yillarda pasayish tendensiyasiga ega bo'lgan. Bu esa tijorat banklarining investitsion jozibadorligini ta'minlash nuqtayi nazaridan ijobiy holat hisoblanadi.

ILMIY YANGILIGI

- O'zbekiston Respublikasi Markaziy banking diskont va lombard kreditlari berish amaliyotini joriy qilish yo'li bilan qayta moliyalash siyosatining samaradorligini oshirish taklifi asoslandi;
- O'zbekiston Respublikasi Markaziy banking tijorat banklari likvidligini ta'minlashdagi rolini oshirishda monetar siyosatning asosiy yo'nalishlaridan foydalanish taklif etildi;

Soliq tizimi va olib borilayotgan fiskal siyosatni kompleks tahlil qilish va rivojlangan mamlakatlarning ilg'or tajribalarini o'rghanish asosida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish, iqtisodiyotni liberallashtirish sharoitida tadbirkorlik subyektlari moliyaviy barqarorligini ta'minlash bilan bir qatorda davlat budjeti manfaatlariga mos keluvchi yo'nalishlarni belgilab beruvchi tavsiya hamda takliflar ishlab chiqildi.

XULOSA VA NATIJA

Markaziy bankning monetar siyosati va uning instrumentlaridan foydalanishning amaliy asoslari yuzasidan amalga oshirilgan o'rghanishlar va tadqiqotlar natijasi yuzasidan quyidagi xulosalarni shakllantirdik:

- tijorat banklari tomonidan talab qilib olinadigan depozitlardan to'g'ridan to'g'ri resurs sifatida foydalanilishi ularning likvidlitigiga nisbatan salbiy ta'sirni yuzaga keltiradi, ularning sof foizli spred koefitsiyentini real darajasini aniqlash imkonini bermaydi. Bu esa, o'z navbatida, quyidagi sabablar bilan izohlanadi:
- talab qilib olinadigan depozitlar beqaror passiv hisoblanadi va istalgan vaqtda egasi tomonidan talab qilib olinishi mumkin;
- taraqqiy etgan mamlakatlarda pul-kredit siyosatining an'anaviy instrumentlari bo'lgan qayta moliyalash siyosati, ochiq bozor siyosati va valyuta siyosatidan barqaror iqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minlashda faol foydalaniladi;

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. www. cbu. uz sayti (O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki)
2. Makkonell K. R., Bryu S. L. Ekonomiks: Prinsipy, problemy i politika. V. 2 t.: Per. s angl. T. I. M.: Respublika, 1992. S. 163.
3. Xeyne P. Ekonomicheskoy obraz myishleniya. M., 1991. S. 484
4. Abdullayeva Sh. Z. Pul, kredit va banklar. T.: Iqtisod – Moliya, 2007. 71 b.
5. Catao L., Terrones M. Fiscal Deficits and Inflation // Working Paper. 65. IMF. – R. 63 – 67.
6. Hess G., Morris C. The Long-Ruh Costs of Moderate Inflation // Federal Reserve Bank of Kansas City Economic Review. 1996. Second Quarter. – P. 71–88.
7. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banking statistik ma'lumotlari asosia tuzilgan.
8. www. cbu. uz sayti (O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki) tomonidan tuzilgan.
9. O'zbekiston Respublikasining qonuni. Banklar va bank faoliyati to'g'risida//Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 06. 11. 2019-y., 03/19/580/3994-son; 07. 01. 2020-y., 03/20/600/0023-son.
10. www. cbu. uz (O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki, Milliy valyutadagi kreditlarning foiz stavkalari; Chet el valyutasidagi kreditlarning foiz stavkalari).
11. Pul-kredit siyosatining 2022-yil va 2023–2024-yillar davriga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari



Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2023. № 8

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

E-mail: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Тел.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi 26-uy.

